

GENDER TENGLIGI VA XOTIN-QIZLARNING IJTIMOY MOBILLIGI

Karimova Lola Muzafarovna

Buxoro davlat tibbiyot instituti

Ijtimoiy fanlar kafedrası dotsenti, PhD

<https://doi.org/10.5281/zenodo.16626515>

Jamiyatning barqaror rivojlanishi va demokratik qadriyatlarning qaror topishi avvalo ayollar va erkaklar uchun teng imkoniyatlarni ta'minlashga bog'liq. Gender tengligi nafaqat huquqiy yoki siyosiy masala, balki iqtisodiy o'sish, ijtimoiy adolat va inson huquqlarini ro'yobga chiqarishning asosiy omili hisoblanadi. Hotin-qizlarning ijtimoiy mobilligi, ya'ni ularning ta'lim, mehnat, siyosiy va madaniy sohalarda yuqori mavqega erishishi jamiyatning taraqqiyotini belgilaydi.

Ijtimoiy mobillik tushunchasini ilmiy muomalaga kiritgan Pitirim Sorokinga ko'ra, mobillik — insonning ijtimoiy ierarxiyadagi mavqei o'zgarishi jarayonidir. Gender tengligi esa hotin-qizlar uchun mazkur jarayonda teng huquq va imkoniyatlarni ta'minlaydi. Gender tengligi erkaklar va ayollarning barcha sohalarda teng huquqlarga ega bo'lishi, ularning iqtidori va salohiyatidan to'liq foydalanish imkoniyatidir. Shunday qilib, gender tengligi hotin-qizlarning ijtimoiy mobilligini ta'minlaydigan asosiy omildir. Hotin-qizlar ijtimoiy mobilligining asosiy kanallari ta'lim, mehnat bozori, siyosiy va jamoat hayoti hamda fuqarolik jamiyatidir.

Xotin-qizlar ijtimoiy mobilligining asosiy kanallari

1. Ta'lim tizimi

Xotin-qizlar uchun maktab va oliy ta'lim imkoniyatlarining kengayishi ularning iqtisodiy mustaqilligini ta'minlaydi.

Stipendiyalar va xalqaro grantlar orqali qizlarni STEM (ilm-fan, texnologiya, muhandislik va matematika) sohaslariga jalb qilish ortib bormoqda.

2. Mehnat bozori

Xotin-qizlarning tadbirkorlikka jalb qilinishi, ularning kichik biznes va oilaviy tadbirkorlikdagi ishtiroki ortishi ijtimoiy-iqtisodiy tenglikka olib keladi.

Gender diskriminatsiyasini kamaytirish va ish haqida tenglikni ta'minlash muhim vazifadir.

3. Siyosiy va jamoat hayoti

Xotin-qizlar parlament, mahalliy kengashlar va davlat idoralarida faol ishtirok etishi ijtimoiy mobillikning yuqori shakli hisoblanadi.

Liderlik ko'nikmalarini rivojlantirish uchun maxsus dasturlar amalga oshirilmoqda.

4. Fuqarolik jamiyati va NNTlar

Xotin-qizlarning huquqlarini himoya qiluvchi va ularning imkoniyatlarini kengaytiruvchi tashkilotlar ijtimoiy mobillikning muhim kanalidir.

Ta'lim sohasida qizlar uchun maktab va oliy ta'lim imkoniyatlarining kengayishi ularning iqtisodiy mustaqilligini ta'minlaydi. Stipendiyalar va xalqaro grantlar orqali qizlarni STEM sohaslariga jalb qilish keng targ'ib etilmoqda. Mehnat bozorida esa hotin-qizlarning tadbirkorlikka jalb qilinishi va ularning kichik biznes hamda oilaviy tadbirkorlikdagi ishtiroki ijtimoiy-iqtisodiy tenglikka olib kelmoqda. Shu bilan birga, ish haqida tenglik va gender diskriminatsiyasini kamaytirish muhim vazifa bo'lib turibdi. Siyosiy va jamoat hayotida hotin-qizlarning parlament, mahalliy kengashlar va davlat idoralaridagi ishtiroki ijtimoiy

mobillikning yuqori shakli sanaladi. Shu maqsadda ular uchun liderlik ko'nikmalarini rivojlantirish dasturlari yo'lga qo'yilmoqda.

Nodavlat tashkilotlar ham hotin-qizlar huquqlarini himoya qilish va ularning imkoniyatlarini kengaytirishda muhim rol o'ynamoqda.

O'zbekiston tajribasi bu sohada alohida ahamiyatga ega. 2019 yilda qabul qilingan "Hotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi qonun gender tengligining huquqiy asosini mustahkamladi. Shuningdek, 2020 yilda Hotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlar masalalari bo'yicha parlament komissiyasi tashkil etildi. Ta'lim sohasida qizlarning oliy ta'limga jalb etilishi darajasi 2017 yilda 28 foiz bo'lgan bo'lsa, 2024 yilda 40 foizdan oshdi. Xorijiy grant va stipendiyalar ularning chet elda ta'lim olishi uchun yo'l ochmoqda.

Mehnat va tadbirkorlik sohasida "Ayollar daftari" tizimi orqali ishsiz ayollar tadbirkorlikka jalb qilinmoqda. Hotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirish jamg'armasi orqali imtiyozli kreditlar ajratilmoqda va minglab ayollar o'z biznesini yo'lga qo'ymoqda. Siyosiy hayotda esa parlament a'zolarining 32 foizini hotin-qizlar tashkil etadi. Mahallalarda ham hotin-qizlar maslahat kengashlari faoliyat yuritmoqda.

Global jarayonlar ham bu jarayonga kuchli ta'sir ko'rsatmoqda. Raqamli texnologiyalar hotin-qizlarga masofaviy ta'lim olish va ish bilan ta'minlanish imkoniyatlarini ochmoqda. Mehnat migratsiyasi ko'plab ayollar uchun iqtisodiy mustaqillik manbai bo'lib xizmat qilmoqda. BMT, YuNESKO va Xalqaro mehnat tashkiloti kabi xalqaro tuzilmalar dasturlari O'zbekistondagi gender siyosati islohotlarini qo'llab-quvvatlamogda.

Xulosa qilib aytganda, gender tengligi va hotin-qizlarning ijtimoiy mobilligi jamiyatning barqaror rivojlanishini ta'minlaydigan asosiy omillardan biridir. O'zbekistonda qabul qilingan qonunlar, davlat dasturlari va fuqarolik jamiyatining faoliyati hotin-qizlarning ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy hayotda teng ishtirokiga yo'l ochmoqda. Kelgusida ta'lim, tadbirkorlik va raqamli texnologiyalar sohasidagi imkoniyatlarni yanada kengaytirish hotin-qizlar ijtimoiy mobilligining asosiy garovi bo'lib qoladi.

References:

Используемая литература:

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Parsons T. *The Social System*. Glencoe: The Free Press, 1951.
2. Giddens A. *Sociology*. Polity Press, 2013.
3. Karimov I. *Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch*. Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 27-iyundagi "Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va ularning bandligini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5150-son qarori.